

**KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASINING
TARIXIY ASOSLARI**

Qilichova Sanobar Rustamovna

Fan va texnologiyalar universiteti

Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tarixiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida jahon va milliy ta'lim tizimlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari, maxsus pedagogik yondashuvlar hamda tiflopedagogikaning rivojlanish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, tarixiy manbalar asosida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar, metodlar va didaktik tamoyillarning evolyutsiyasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, tiflopedagogika, maxsus ta'lim, tarixiy-pedagogik tahlil, inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim muassasalari, pedagogik yondashuvlar, ta'lim-tarbiya tarixi.

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития образования детей с нарушениями зрения с историко-педагогической точки зрения. В ходе исследования освещается развитие образовательных учреждений для детей с нарушениями зрения, специальных педагогических подходов и тифлопедагогике в мировых и национальных системах образования. Также анализируется эволюция идей, методов и дидактических принципов, направленных на обеспечение права детей с нарушениями зрения на образование, на основе исторических источников.

Ключевые слова: дети с нарушениями зрения, тифлопедагогика, специальное образование, историко-педагогический анализ, инклюзивное образование, специальные образовательные учреждения, педагогические подходы, история образования.

Abstract. This article analyzes the stages of formation and development of education of children with visual impairments from a historical and pedagogical perspective. In the course of the research, the development of educational institutions for children with visual impairments, special pedagogical approaches and typhlopedagogy in world and national education systems is highlighted. Also, the evolution of ideas, methods and didactic principles aimed at ensuring the right of children with visual impairments to education based on historical sources is analyzed.

Keywords: children with visual impairments, typhlopedagogy, special education, historical and pedagogical analysis, inclusive education, special educational institutions, pedagogical approaches, history of education.

KIRISH

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalasi insoniyat taraqqiyoti davomida doimo dolzarb pedagogik va ijtimoiy muammo bo‘lib kelgan. Jamiyatning ilmiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanish darajasi ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalarga bo‘lgan munosabat, ularning ta‘lim olish imkoniyatlari hamda jamiyatga integratsiyalashuv darajasini belgilab bergan. Ana shu ehtiyojlar negizida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarni o‘qitish va tarbiyalash bilan shug‘ullanuvchi maxsus pedagogika sohasi — tiflopedagogika shakllangan.

Mazkur maqolaning maqsadi ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning tarixiy bosqichlarini tahlil qilish, jahon va O‘zbekiston tajribasi asosida tiflopedagogikaning shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘lim-tarbiyasining tarixiy shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi maxsus pedagogika, tarix, psixologiya va ijtimoiy fanlar integratsiyasiga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotda tarixiy-pedagogik tahlil metodi asosiy metod sifatida qo‘llanilib, u orqali ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘limining qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari uzviylik va izchillikda o‘rganildi. Turli tarixiy davrlarda jamiyatning ko‘r bolalarga bo‘lgan munosabati, ta‘lim shakllari va pedagogik yondashuvlarining o‘zgarishi sabab-oqibat bog‘liqligida tahlil qilindi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va manbalarni tahlil qilish metodi yordamida tiflopedagogika va defektologiya sohasiga oid monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar hamda tarixiy hujjatlar o‘rganildi va umumlashtirildi. Bu metod tarixiy tajribaning nazariy asoslarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi ham qo‘llanilib, O‘zbekiston Respublikasida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘limini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmon va qarorlarining mazmuni o‘rganildi. Ushbu metod maxsus ta‘lim tizimining huquqiy asoslarini ochib berishga imkon yaratdi.

Bundan tashqari, taqqoslash (komparativ) metodi orqali jahon va milliy tajribada ko‘r bolalar ta‘limining rivojlanish xususiyatlari solishtirilib, umumiy va farqli jihatlar

aniqlandi. Tadqiqot natijalarini yaxlit tizim sifatida talqin etishda tizimli yondashuv, analitik-sintez va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Qo'llanilgan metodlar majmui ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asosda ochib berish hamda ularni zamonaviy tiflopedagogik amaliyot bilan bog'lash imkonini berdi.

Natijalar

Qadimiy sivilizatsiyalarda ko'r bolalar alohida ijtimoiy guruh sifatida ajratilmagan. Qadimgi Misrda ko'r shaxslar diniy marosimlar, musiqa va bashorat bilan shug'ullangan bo'lsa, Yunon va Rim jamiyatida ular ko'pincha ijtimoiy cheklovlarga duch kelgan. Ayrim faylasuflar jismoniy nuqson insonning aqliy salohiyatiga to'sqinlik qilmasligini ta'kidlagan bo'lsalar-da, bu g'oyalar amaliyotda keng qo'llanilmagan.

O'rta asrlarda Yevropa va Sharqda diniy yondashuv ustuvor bo'lib, ko'r bolalar ko'proq ijtimoiy parvarish obyekti sifatida qaraldi. Ta'lim tizimli bo'lmagan, maxsus metodikalar shakllanmagan.

XVIII asr oxirlarida insonparvarlik g'oyalari kuchayishi natijasida ko'r bolalarni o'qitish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi. 1784-yilda Parijda Valentin Gayui tomonidan ochilgan ko'r bolalar maktabi tiflopedagogika tarixida muhim burilish bo'ldi. XIX asrda Louis Braille tomonidan yaratilgan nuqtali yozuv tizimi ko'r shaxslarning mustaqil o'qish va yozish imkoniyatlarini kengaytirdi.

XX asrda tiflopedagogika psixologiya va pedagogika bilan integratsiyalashib rivojlandi. L.S. Vigotskiy, V.P. Kashchenko, M.S. Pevzner tomonidan ishlab chiqilgan kompensatsiya va sensor rivojlanish nazariyalari ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda ko'r bolalar ta'limining rivojlanishi

O'zbekistonda ko'r bolalarni o'qitish tizimi XX asrda shakllandi. 1929-yilda Toshkentda Yo'ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan ko'zi ojiz bolalar maktabi tashkil etildi. Dastlab 20 nafar o'quvchi qabul qilinib, keyinchalik maktabgacha ta'lim guruhlari ochildi. 1930–1931-yillarda birinchi sinf tashkil etilishi muhim tarixiy voqea bo'ldi.

Keyingi yillarda Qo'qon, Buxoro, Xiva, Asaka va Namangan shaharlarida maxsus maktab-internatlar ochildi. Urush yillarida evakuatsiya qilingan bolalar hisobiga ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni keskin oshdi.

Mustaqillikdan so'ng qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida ko'r bolalar ta'limi yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2022-yil 18-apreldagi PQ–209-son qaror asosida ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar "Nurli Maskan" nomi bilan faoliyat yuritmoqda. Hozirda respublika bo'yicha 17 ta muassasada 3500 dan ortiq o'quvchi ta'lim olmoqda.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi tarixiy jihatdan ijtimoiy munosabatlar, ilmiy yondashuvlar va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Zamonaviy bosqichda estetik tarbiya va koreksion mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Multisensor yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar eshitish, teginish va harakat orqali bilish jarayonlarini faollashtiradi, bu esa bolalarning estetik tafakkuri, ijodiy faolligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv tiflopedagogikaning hozirgi rivojlanish tendensiyalariga to'liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Mahmudov. Tiflopedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'qituvchi. 2018.
2. L.Mo'minova, M.Ayupova, D.Nurkeldieva, X.Kalbaeva. Maxsus pedagogika "Noshir" nashriyoti, 2016.
3. S.M.Dangalov. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Tavsiyanoma. Toshkent.2010